

## **FORTEPIANO ASBOBI IJROSINI TEXNIK MASHQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH**

**Habibulloyeva Go'zal Habibulloyevna**  
*Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa  
ta'limi va san'at yo'nalishi magistri*

***Annotatsiya.** Maqolada fortepiano asbobida o'quvchilarni ijro texnikasini rivojlantirishda Franz Liszt, Ludwig Deppe, Carles Louis Hanon va boshqalarning texnik mashqlari yoritib berilgan. Shu o'rinda texnik mashqlar o'quvchilarga qanday yordam berishi haqida aytib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** fortepiano, Carles Louis Hanon, Franz Liszt, texnika, mashqlar, kompozitor, ijro, Ludwig Deppe.*

***Аннотация.** В статье освещаются технические упражнения Ференца Листа, Людвиг Денпе, Карла Луи Ганона и других в развитии исполнительской техники учащихся на фортепиано. Здесь упоминается, как технические упражнения могут помочь учащимся.*

***Ключевые слова:** фортепиано, Карлес Луи Ханон, Ференц Лист, техника, упражнения, композитор, исполнение, Людвиг Денпе.*

***Annotation.** The article highlights the technical exercises of Franz Liszt, Ludwig Deppe, Carles Louis Hanon, and others in developing students' performance technique on the piano. It also discusses how technical exercises can help students.*

***Key words:** piano, Carles Louis Hanon, Franz Liszt, technique, exercises, performance, Ludwig Deppe.*

### **KIRISH**

Fortepiano asbobi butun dunyoni o'ziga maftun qilgan musiqa asbobi hisoblanadi. Fortepiano asbobiga turli xil asarlar yaratilgan va hozirgacha yaratilyapti. Ammo bu asbobni chalish ham bir san'atdir. Hozirgi zamonda pianino chalish keng tarqalgan, yaxshi pianinochilar ko'p ammo shuningdek o'rtamiyona chalaydigan insonlar ham ko'p. Bundan kelib chiqadiki, hatto tinglovchilar oldida qiyin asarni chalish uchun, kamida 8 yoki 10 yil davomida pianino chalishni o'rganish kerak. Ammo juda kam inson bu asbobni o'rganish uchun ko'p vaqt ajratadi. Demak, ko'p pianino o'rganuvchilar notekis va beparvo chalishadi. Chap qo'l uchun har qanday qiyin joylarida qiynalishadi, to'rtinchi va beshinchi barmoqlar doim boshqalardan zaifroq, agar oktava, tremolo yoki trel sodir bo'lsa, ko'p hollarda katta kuch bilan bajariladi, shuning uchun ham ritmsiz, tempsiz va ifodasiz asar eshitiladi.

Frans List davridan to hozirgi kunga qadar yosh pianinochilarning ko'pchiligi ba'zi texnik mashqlar (arpedjio, gammalar, akkordlar va boshqalar) bilan ishlagan, ular yetarli darajada musiqiy ahamiyatga ega bo'lmagan, lekin yosh pianinochilarga foyda keltiradi.

Ko'p yillardan beri ko'plab kompozitorlar bu vaziyatni o'zgartirishga harakat qilib kelinyapti, bu esa pianino chalishni ancha qisqa vaqt ichida mukammal o'zlashtirishga imkon beradigan bir qancha mashqlar yaratildi.

Agar har bir qo'lning beshta barmog'i mukammal rivojlangan bo'lsa, unda fortepiano uchun yaratilgan har qanday asarni qiyinchiliksiz chalinadi. Bunda so'ng esa faqat aplikaturaga e'tibor berilardi.

Shuning uchun ham ko'plab kompozitorlar turli xil mashqlar yaratgan fortepiano uchun. Bular, Karl Czerny, Carles Louis Hanon, Johann Baptist Cramer, Franz Liszt, Ludwig Deppe, Muzio Clementi, Isidor Philipp va boshqalar.

Mashxur nemis bastakori, dirijyor va pianino pedagogikasiga o'z hissasini qo'shgan inson bu – Ludwig Deppe. U pianino chalishni o'rganishni yangi texnikalarini ishlab chiqqan. Deppe o'zining qarashlarni yozib qoldirmagan, ammo uning o'quvchisi Elisabeth Caland vafotidan so'ng targ'ib qilgan. Bu kitobning nomi "Artistic piano playing". Deppe "og'irlik texnikasini" yaratgan. Bunda faqat barmoqlarga emas, balki qo'l, bilak va yelkalarga tayanish kerak degan. Shuningdek, qo'l va tana erkinligi yoki har bir mashqni o'ylab keyin sekin chalish kerak deydi. Bu kitob ko'p pedagoglarga yordam beradi.

Hozirgi zamonda ko'p pedagoglar Charles Louis Hanonning "Pianist virtuoz uchun 60 mashq" kitobidan foydalanishadi va bu kitob juda mashhur. Bu mashqlarda tezlik, mustaqillik va barmoqlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, bu mashqlar chap qo'lni o'ng qo'l kabi rivojlantirish uchun yaratilgan. Mashqlar o'quvchilarni zeriktirmaydi va charchatmaydi. Bu mashqlarni o'rganish mehnat va jasorat talab qiladi. Agar o'qituvchi xohlasa bu mashqlarni bir vaqtning o'zida ikkita o'quvchi bilan ansambl qilib chalishi mumkin. O'quvchilar uchun ham qiziqarli bo'ladi. O'zim ham bu kitobdan foydalanaman. O'quvchilarim gamma, arpedjiolarni chalishdan ko'ra Hanonning texnik mashqlarini chalishni yaxshi ko'rishadi.

Fortepianoda texnik mashqlarni mashq qilish texnikani rivojlantirishga yordam beradi va pianino chalishni qulay va qiziqarli qiladi. Ammo texnik mashqlar va repertuar asarlari o'rtasida to'g'ri muvozanat yaratish kerak. XIX asrda texnik mashqlarni soatlab mashq qilish mukamallikka olib keladi – deb o'ylangan. Texnik mashqlarni ko'p chalish, mexanik chalishga olib kelishi mumkin. Agar haddan oshsa shikastlanishi mumkin. Shuning uchun, hayotda hamma narsada muvozanat kerak. Pianino uchun texnik mashqlar barmoqlarning epchilligiga, kuchini va tezligini rivojlantiradi. Shuningdek, chalish texnikasini yaxshilash uchun yordam beradi.

Masalan, gamma va arpedjiolar barmoqlarning erkinligi, kuchi va chaqqonligiga yordam beradi. Barmoq mashqlari uchun Hanon va Czernyning texnik mashqlari barmoqning epchilligi, tezligi va aniqligiga qaratilgan. Akkordlar esa mashq qilishga

va kuchini yaxshilashga yordam beradi. Intervallar va oktavalalar o‘z ichiga olgan mashqlar qo‘llarni cho‘zishga va aniqlikga yordam beradi. Ko‘rib o‘qishni mashq qilish yangi musiqani tezda tushunish va ijro etishni yaxshilaydi. Ritm mashqlari – hissalarini tushunish, qarsak chalish va metranom bilan chalishda qiynalmasdan chalishga yordam beradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytsak, pianinoda texnik mashqlarni chalish o‘quvchilarning tezligi, mustaqilligi, aniqlik va his qilishga yordam beradi. Shuning uchun ham bolalarga boshidan asta sekinlik bilan texnik mashqlar qo‘llash kerak. Faqat bolalar emas, balkim pianistlar, o‘qituvchilar, havaskorlar va boshqalar ham qoidaga rioya qilib o‘rganishi kerak. Har bir asarni o‘rganiyotgan bola albatta qiynalayotgan joyidan turli xil mashqlar orqali o‘rganishi kerak. Bunda o‘qituvchi ham o‘quvchiga yordam berishi kerak. Men o‘ylaymanki, har bir pedagog Elisabeth Calandning “Artistic piano playing” kitobini o‘qishi kerak. Bu kitob pedagogning rivojlanishiga yordam beradi. O‘zim ham o‘quvchilarimga doim texnik mashqlarni chaldiraman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Elisabeth Caland. “Artistic is playing”. 1903.
2. Ch. L. Hanon. “Пианист – виртуоз”. 2006.
3. Зильберквит. “Рождения Фортепиано”. 1984.
4. Bahora, S., & Parvina, N. (2024). Samarali muloqot qoida va tamoyillari. Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar, 7(73), 107-109.